



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'1

### Xalq ta'limi tizimida qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish va o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish samaradorligini oshirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni va "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2006-yil 16-fevraldagi 25-son qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, xalq ta'limi muassasalarida pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash, kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash jarayoni sifati hamda sohaga doir o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish samaradorligini yanada oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Xalq ta'limi tizimida qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo'nalishlari kesimida tayanch ta'lim muassasalari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2020-yil 17-avgustdagi "Xalq ta'limi tizimida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 188-sonli buyrug'ining 1 va 2-ilovalari mos ravishda mazkur buyruqning 3 va 4-ilovalariga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

3. A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (A.Radjiyev) tayanch ta'lim muassasalarini jalb qilgan holda bir oy muddatda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi yo'nalishi hamda pedagogik qayta tayyorlash kurslari uchun o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqsin hamda vazirlikka kiritsin;

Bunda, avval pedagogik va keyin kasbiy qayta tayyorlash kurslaridan o'tilishini ifodalaydigan o'quv rejalarini o'zaro muvofiqlashtirishni nazarda tutsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari:

ikki hafta muddatda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan nopedagog va nomutaxassis o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlarni shakllantirsin;

2021-yil yanvar oyidan boshlab mazkur o'qituvchilarni xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash kurslaridan o'tishlarini tashkil qilsin;

bajarilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha vazirlikka axborot kiritilsin.

5. A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (A.Radjiyev) Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari bilan birgalikda "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha diplom hamda sertifikatlarni ro'yxatga olish elektron tizimi"ga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha texnik talablarni ikki hafta muddatda Xalq ta'limi sohasida Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markaziga taqdim etsin.

6. Xalq ta'limi sohasida Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi (Sh.Qayumov) bir oy muddatda A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tominidan taqdim etilgan texnik talablarga muvofiq "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha diplom hamda sertifikatlarni ro'yxatga olish elektron tizimi"ga o'zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2019-yil 17-maydagi "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining tayanch ta'lim muassasalarini belgilash to'g'risida"gi 176-sonli buyrug'ining 1-ilovasi hamda 2020-yil 17-avgustdagi "Xalq ta'limi tizimida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 188-sonli buyrug'ini 3-bandining uchinchi va to'rtinchi xatboshilari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



Sh.Shermatov

Toshkent sh.,  
2020-yil "30. dekab"rdagi,  
338 - son

## **Xalq ta'limi tizimida qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish tartibi**

### **1-§. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu hujjat xalq ta'limi tizimida oliy ma'lumotli kadrlarni kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash tartibini belgilaydi.

2. Xalq ta'limi tizimida oliy ma'lumotli kadrlarni qayta tayyorlashning maqsadi – mehnat bozori, shaxs, davlat va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olgan holda xalq ta'limi muassasalarida (umumiy o'rta, maktabdan tashqari va boshqa ta'lim muassasalarida) faoliyat olib borayotgan oliy ma'lumotli, lekin tegishli pedagogik yoki kasbiy ma'lumotga ega bo'lmagan kadrlarning qo'shimcha ixtisoslik bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini mavjud Davlat ta'lim standartlari yoki Davlat talablari asosida shakllantirishdan iborat.

3. Xalq ta'limi tizimida oliy ma'lumotli kadrlarni qayta tayyorlash mutaxassislikning malaka tasnifiga muvofiq keyinchalik professional faoliyatning yangi turini bajarish maqsadida yangi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yo'naltiriladi.

4. Xalq ta'limi tizimida oliy ma'lumotli kadrlarni qayta tayyorlash asosiy ishidan ajralgan va ajralmagan, masofadan o'qitish usullari qo'llanilgan va o'z bilimlarini mustaqil oshirgan holda A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (keyingi o'rinlarda – Institut) hamda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari (keyingi o'rinlarda – hududiy markazlar) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Ta'lim dasturlarining mazmuni Davlat ta'lim standartlari yoki Davlat talablari asosida belgilanadi. Qayta tayyorlashdan muvaffaqiyatli o'tgan kadrlarga belgilangan namunadagi hujjat (diplom) beriladi.

6. Qayta tayyorlashga ikkinchi oliy ta'lim olish sifatida qaralmaydi va qayta tayyorlash natijasida beriladigan hujjat (diplom) faqat muayyan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini yoki pedagogik faoliyat olib borish huquqini beradi.

7. Xalq ta'limi tizimida oliy ma'lumotli kadrlarni qayta tayyorlash ularning ehtiyojlari va murojaatlariga binoan to'lov shartnomalari asosida tashkil etiladi. To'lovlar qayta tayyorlash kursi tinglovchisi yoki homiyar tomonidan shartnomada ko'zda tutilgan muddatlar va miqdorlarda amalga oshiriladi.

8. Qayta tayyorlash kurslarining shartnoma-to'lov mablag'lari miqdori, professor-o'qituvchilarga soatbay haq to'lash ta'rifi hamda boshqa xarajatlar haqidagi kalkulyatsiyasi tegishli ta'lim muassasasining Ilmiy (Ilmiy-metodik) kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

9. Institut xalq ta'limi tizimida tashkil etiladigan oliy ma'lumotli kadrlarni kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kurslari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

### **2-§. Qayta tayyorlashning turlari va shakllari**

10. Qayta tayyorlashning asosiy turlari:

pedagogik qayta tayyorlash;

kasbiy qayta tayyorlash.

11. Pedagogik qayta tayyorlash – oliy ta'lim muassasalarining nopedagogik yo'nalishlarini tamomlagan mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma'lumotini ta'limning tegishli turi Davlat ta'lim standarti (Davlat talablari) bilan belgilanadigan o'quv-tarbiya jarayonining talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo'lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida mutaxassislarni qayta tayyorlash.

12. Kasbiy qayta tayyorlash – oliy pedagogik ma'lumotli mutaxassislar tomonidan ta'limning tegishli turi Davlat ta'lim standarti (Davlat talablari) bilan belgilanadigan o'qitishning talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada o'quv fani yoki kurs bo'yicha pedagogik

faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli hajmda yangi kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish.

13. Kasbiy qayta tayyorlash o'quv rejalariga yangi o'quv fanlari yoki kurslar joriy etilishi, buyurtmachilar yoki mehnat bozorining talablari bilan belgilanadigan ayrim pedagoglarning qayta ixtisoslashuvi yoki yangi mutaxassislikka ega bo'lishi munosabati bilan vujudga kelgan ehtiyojlarga ko'ra tashkil etiladi.

14. Qayta tayyorlash kurslari tegishli ta'lim dasturlari asosida:

qayta tayyorlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida (Institut va hududiy markazlarda) o'qitish;

qisman ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasida va qisman mustaqil o'qib bilim orttirish orqali masofadan o'qitish;

qayta tayyorlash kurslarining o'quv-metodik resurslarini, videodarslar, maslahatlar, nazorat turlarini real vaqt rejimida onlayn o'qitish shakllarida amalga oshirilishi mumkin.

15. Qayta tayyorlash buyurtmachining yakka tartibdagi topshirig'i yoki aniq yo'naltirilgan dasturi asosida, Davlat talablariga, shuningdek ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi.

16. Qayta tayyorlash kurslari 2+2 yoki 3+1 sxemalari bo'yicha (tegishli ravishda 50 yoki 75% – yashash joyi bo'yicha mustaqil ravishda bilim orttirish, 50 yoki 25% – bevosita ta'lim muassasasida) o'qitish shakllarida ham tashkil etilishi mumkin.

O'qitishning bunday shakllari zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va xalq ta'limi xodimlari qayta tayyorlash bo'yicha maxsus virtual kurslar, ya'ni masofaviy ta'limni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi. Mazkur tarzda tashkil etilgan kurslarning kamida bir oyi, ya'ni 144 soati ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'tkazilishi shart.

17. Qayta tayyorlashning ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalaridagi qismi ishlab chiqarishdan ajralgan (ta'til davri va ishdan bo'sh vaqtlarda – ishdan ajralmagan) holda tashkil etiladi.

### **3-§. Qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish**

18. Institut va hududiy markazlar qayta tayyorlash kurslarini tashkil etishda quyidagilarni amalga oshiradi:

buyurtmachilar ehtiyoji va yakka shaxslarning murojaatlariga ko'ra qayta tayyorlash kurslariga buyurtmalarni shakllantiradi;

qayta tayyorlash kurslariga o'qish istagini bildirgan talbgorlarning yo'nalishlar bo'yicha tayanch bilimlarini test sinovlari shaklida (javoblarning kamida 50 foizi to'g'ri bajarilganda qabul qilinadi) aniqlaydi;

qayta tayyorlash kurslarida o'qishga talabgor tinglovchilar (famiyasi, ismi va otasining ismi, qachon va qaysi o'quv yurtini bitirganligi, diplom bo'yicha mutaxassisligi, qayta tayyorlash yo'nalishiga mosligi)ga doir hujjatlarni to'liq o'rganadi va tegishli xulosani tayyorlaydi;

qayta tayyorlash kurslari uchun tayanch o'quv reja va fan dasturlari asosida o'quv-metodik materiallar (ishchi o'quv-mavzu reja, ishchi dasturlar, o'quv-metodik majmualar)ni tayyorlaydi.

19. Yetarli ilmiy-pedagogik va moddiy-texnik baza asosida tegishli ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tomonidan qayta tayyorlash kurslari tashkil etiladi. Qayta tayyorlash kurslarini huquqiy-me'yoriy hujjatlar va mazkur tartib talablariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etilishidagi butun mas'uliyat tegishli Institut yoki hududiy markaz rahbariga yuklatiladi. Mazkur talab buzilganda ularga nisbatan belgilangan tartibda chora ko'riladi.

20. Qayta tayyorlashdan o'tuvchi xodimlar Institut yoki hududiy markaz rahbarining buyrug'i bilan tinglovchilar safiga qabul qilinadi hamda kurslar boshlangandan so'ng ikkinchi haftasining yakunigacha tinglovchilar haqidagi barcha ma'lumotlar Vazirlikning tegishli bazasiga kiritiladi.

21. Qayta tayyorlash jarayonida guruhdagi kurs tinglovchilarining soni, qoidaga ko'ra, 25 nafardan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

22. Qayta tayyorlash kurslaridagi o'quv jarayoni belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va Vazirlik tomonidan tasdiqlangan tayanch o'quv rejalari hamda dasturlari asosida tashkil etiladi.

23. Qayta tayyorlash kurslarining metodik ta'minoti (ishchi o'quv-mavzu rejalari, ishchi dasturlar) tegishli ta'lim muassasasining Ilmiy (Ilmiy-metodik) kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

24. Qayta tayyorlash kurslaridagi o'quv jarayoni amaldagi qoidalarga muvofiq tuziladigan va ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlanadigan mashg'ulotlar jadvali asosida olib boriladi. Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqa davom etadigan dars jufiligi belgilanadi.

25. Qayta tayyorlash kurslaridagi ayrim o'quv mashg'ulotlarini ilg'or ta'lim muassasalari negizida tashkil etish mumkin.

26. Qayta tayyorlash kursi tinglovchisi kursning o'quv rejasida ko'zda tutilgan barcha nazorat turlarida (oraliq, yakuniy va boshqalar) ijobiy natija ko'rsatsa, kursning o'quv dasturi to'liq o'zlashtirilgan hisoblanadi. Oraliq nazorat topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajargan tinglovchi yakuniy attestatsiyaga qo'yiladi. Barcha nazorat turlari uchun ishchi o'quv dasturi asosida topshiriqlar tuziladi hamda ularning maxfiyligiga tegishli Institut yoki hududiy markaz mas'ul xodimlari javobgar hisoblanadi.

27. Oraliq nazoratlarda yetarli ball to'play olmagan tinglovchiga ta'lim muassasasi rahbarining ruxsati bilan qayta topshirishga imkoniyat beriladi. Mazkur imkoniyatdan ham foydalana olmagan tinglovchi tinglovchilar safidan chetlashtiriladi.

28. Oraliq nazorat topshiriqlarini bajarmagan tinglovchilar yakuniy nazoratga qo'yilmaydi, tegishli ravishda ularga qayta tayyorlash kurslarini tamomlaganlik to'g'risida Davlat namunasidagi hujjat (diplom) berilmaydi.

29. Ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan yakuniy attestatsiyani o'tkazuvchi maxsus komissiya tashkil etiladi. Yakuniy attestatsiya – yakuniy nazorat (test) sinovlari va bitiruv ishini himoya qilishdan iborat bo'ladi. Yakuniy nazorat (test) sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga bitiruv ishini himoya qilishga ruxsat beriladi.

30. Qayta tayyorlash kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga Davlat namunasidagi hujjat (diplom) beriladi.

31. Yakuniy attestatsiya sinovlarida yetarli ball to'play olmagan yoki uzrlil sabablarga ko'ra qatnasha olmagan tinglovchilarga navbatdagi kurslar bilan qayta topshirishga imkoniyat beriladi. Agar navbatdagi kurslar bir yil mobaynida tashkil etilmasa alohida yakuniy attestatsiya komissiyasi tuzilishi mumkin.

32. Yakuniy attestatsiya sinovlarini qayta topshirish natijalari salbiy bo'lgan taqdirda tinglovchiga kursni tugatganlik to'g'risida ma'lumotnoma beriladi.

#### **4-§. Qayta tayyorlashda masofaviy ta'lim shaklini qo'llash**

33. Qayta tayyorlashda masofadan o'qitish shaklini qo'llash qayta tayyorlash kurslari dasturining muayyan qismini masofadan o'qitishni amalga oshirish vositalaridan foydalanib tashkil etishni nazarda tutadi.

34. Qayta tayyorlashning masofadan o'qitish shakli bo'yicha ta'lim an'anaviy kurslar uchun tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida o'tkaziladi. Bunda kurs davomiyligining kalendar muddatlari an'anaviy kursnikidan ortiq bo'lishi mumkin.

35. Masofadan o'qitish shakli bo'yicha o'qitish jarayonida tinglovchilar bilan aloqa elektron pochta, telefon va boshqa aloqa vositalari yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, mashg'ulotlarning bir qismi tinglovchilar bilan kontakt-sessiyalar (bevosita yuzma-yuz muloqot) tarzida amalga oshirilishi mumkin (kursning o'quv rejasida belgilangan muddatlarda).

36. Qayta tayyorlashning masofadan o'qitish shakli bo'yicha kurslarga qabul qilingan tinglovchiga qayta tayyorlash ta'lim muassasasi tomonidan elektron shakldagi o'quv-metodik ta'minot (kurs bo'yicha yo'riqnoma, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, yakka tartibdagi topshiriqlar, malakaviy ishlarni bajarish bo'yicha tavsiyalar, mavjud elektron multimediyali darsliklar va

qo'llanmalar, shuningdek boshqa zarur o'quv-metodik materiallar jamlamasi) joylashtirilgan veb-portal va boshqa maxsus veb-resurslardan foydalanish huquqi beriladi.

37. Masofaviy shakl bo'yicha kurs tinglovchilari o'quv rejalariga muvofiq ta'lim muassasasining maxsus veb-portalida (yoki boshqa maxsus veb-resurslarida) joylashtirilgan modullarning o'quv-metodik materiallarini mustaqil ravishda o'zlashtiradilar. Jadval bo'yicha yakka tartibdagi topshiriqlarni (test, nazorat savollari, referat, ishlanma, yozma ish, kurs ishi, amaliyot bo'yicha hisobotlar va shu kabilar) bajaradilar.

#### **5-§. Qayta tayyorlashda onlayn ta'lim shaklini qo'llash**

38. Onlayn shaklda qayta tayyorlash kursidagi o'qitish jarayonida tinglovchilar bilan aloqa ta'lim muassasasining veb-sayti, maxsus onlayn veb-portal, ijtimoiy tarmoqlar, telefon va boshqa elektron aloqa vositalari yordamida amalga oshiriladi.

39. Onlayn shaklda qayta tayyorlash kursi tinglovchilariga ta'lim muassasasi tomonidan elektron shakldagi o'quv-metodik ta'minot (kurs bo'yicha yo'riqnoma, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, yakka tartibdagi topshiriqlar, malakaviy ishlarni bajarish bo'yicha tavsiyalar, mavjud elektron multimediyali darsliklar va qo'llanmalar, shuningdek boshqa zarur o'quv-metodik materiallar jamlamasi) joylashtirilgan veb-sayt, veb-portal, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa maxsus veb-resurslardan foydalanish huquqi beriladi.

40. Qayta tayyorlash kurslarini onlayn tashkil etish videokonferensiya va vebinar shaklida maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda amalga oshiriladi. O'qitishning mazkur shaklida tinglovchi va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlash real vaqt rejimida amalga oshiriladi.

41. Tinglovchilar kursning o'quv mashg'ulotlarini onlayn tashkil etishda foydalaniladigan aloqa usuli haqida qayta tayyorlash ta'lim muassasasi tomonidan oldindan xabardor qilinadi.

42. Onlayn o'quv mashg'ulotlari to'g'risida qayta tayyorlash ta'lim muassasasi rasmiy veb-sayti yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon beriladi va unda mashg'ulotning nomi, mashg'ulotni olib boruvchi haqida ma'lumot, mashg'ulot sanasi, boshlanish vaqti va davomiyligi, mashg'ulot maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalar ko'rsatiladi.

#### **6-§. Yakunlovchi qoida**

43. Ushbu Tartibda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

**Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo'nalishlari  
kesimida tayanch ta'lim muassasalari  
RO'YXATI**

t/r	Malaka oshirish ta'lim muassasasi nomi	Malaka oshirish yo'nalishi nomi*
1	A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI	1. Xalq ta'limi boshqarmalari, bo'limlari va umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) rahbarlari, rahbar kadrlar zahirasi. 2. TXXTQMO hududiy markazlari rahbarlari, xodimlari va professor-o'qituvchilari. 3. Xalq ta'limi boshqarmalari va bo'limlari mutaxassis xodimlari. 4. "Barkamol avlod" bolalar maktablari direktorlari, direktor o'rinbosarlari va to'garak rahbarlari. 5. Umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashgan maktab internati, ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari direktorlari.
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi XTXQTMOHM	1. Qoraqalpoq tili va adabiyoti o'qituvchilari. 2. Davlat (qoraqalpoq) tili o'qituvchilari. 3. Turkman tili va adabiyoti o'qituvchilari.
3	Andijon viloyati XTXQTMOHM	1. Qirg'iz tili o'qituvchilari. 2. Rus tili va adabiyoti o'qituvchilari.
4	Buxoro viloyati XTXQTMOHM	1. Tarix o'qituvchilari. 2. Umumta'lim maktablari yoshlar yetakchisi.
5	Jizzax viloyati XTXQTMOHM	1. Xalq ta'limi tizimidagi Bolalar kutubxonalari, umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) kutubxonalari rahbar va xodimlari. 2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari. 3. Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim tashkilotlari (maktablar, maktab-internatlar, muruvvat uylari, mehribonlik uylari) pedagog xodimlari
6	Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM	1. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilari 2. Iqtisodiy bilim asoslari o'qituvchilari.
7	Navoiy viloyati XTXQTMOHM	1. Rus tili (o'zbek va qardosh tillardagi sinflarda) o'qituvchilari. 2. Biologiya o'qituvchilari. 3. Xorijiy (nemis) tili o'qituvchilari
8	Namangan viloyati XTXQTMOHM	1. Kimyo o'qituvchilari. 2. Fizika o'qituvchilari.
9	Samarqand viloyati XTXQTMOHM	1. Ona tili va adabiyoti o'qituvchilari. 2. Texnologiya o'qituvchilari.
10	Surxondaryo viloyati XTXQTMOHM	1. Tojik tili va adabiyoti o'qituvchilari. 2. Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilari.
11	Sirdaryo viloyati XTXQTMOM	1. Davlat va huquq asoslari o'qituvchilari. 2. Umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashgan maktab internati, ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari direktor o'rinbosarlari.
12	Toshkent viloyati XTXQTMOHM	1. Qozoq tili va adabiyoti o'qituvchilari. 2. Xorijiy (fransuz) tili o'qituvchilari.
13	Farg'ona viloyati	1. Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilari.

	XTXQTMOHM	2. Xorijiy (ingliz) tili o'qituvchilari.	
14	Xorazm viloyati XTXQTMOHM	1. Geografiya o'qituvchilari. 2. Musiqa va ashula o'qituvchilari.	
15	Toshkent shahar XTXQTMOHM	1. Matematika o'qituvchilari. 2. Davlat (o'zbek) tili o'qituvchilari. 3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari. 4. Tarbiya o'qituvchilari.	

\* malaka oshirish yo'nalishlari bo'yicha tayanch ta'lim muassasalari qayta tayyorlash yo'nalishlari uchun ham tayanch muassasa hisoblanadi;



**Xalq ta'limi tizimida oliy pedagogik ma'lumotli kadrlarni turdosh mutaxassislikka kasbiy qayta tayyorlash yo'nalishlari**

№	Dars berish huquqi beriladigan kasbiy qayta tayyorlash yo'nalishlari	Diplom bo'yicha mutaxassisligi, akademik daraja	
		Oliy ma'lumotli mutaxassislar	Bakalavrlar va magistrilar
1.	Ta'lim muassasasi logopedi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi.</li> <li>2. Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Surdopedagogika.</li> <li>4. Tiflopedagogika.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Boshlang'ich ta'lim.</li> <li>2. Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> </ol>
2.	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi o'qituvchisi va tarbiyachisi (oligofrenopedagogika)	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Oliy ma'lumotli tegishli fan pedagoglari.</li> <li>2. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari (TTM tarbiyachisiga qayta tayyorlash uchun).</li> <li>3. Surdopedagogika.</li> <li>4. Tiflopedagogika.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Pedagogik ma'lumotga ega tegishli fan bakalavrlari.</li> <li>2. Maktabgacha ta'lim (TTM tarbiyachisiga qayta tayyorlash uchun).</li> </ol>
3.	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi o'qituvchisi va tarbiyachisi (surdopedagogika)	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Oliy ma'lumotli tegishli fan pedagoglari.</li> <li>2. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari (TTM tarbiyachisiga qayta tayyorlash uchun).</li> <li>3. Oligofrenopedagogika.</li> <li>4. Tiflopedagogika.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Pedagogik ma'lumotga ega tegishli fan bakalavrlari.</li> <li>2. Maktabgacha ta'lim (TTM tarbiyachisiga qayta tayyorlash uchun).</li> </ol>
4.	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi o'qituvchisi va tarbiyachisi (tiflopedagogika)	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Oliy ma'lumotli tegishli fan pedagoglari.</li> <li>2. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari (TTM tarbiyachisiga qayta tayyorlash uchun).</li> <li>3. Surdopedagogika.</li> <li>4. Oligofrenopedagogika.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Pedagogik ma'lumotga ega tegishli fan bakalavrlari.</li> <li>2. Maktabgacha ta'lim (TTM tarbiyachisiga qayta tayyorlash uchun).</li> </ol>
5.	Umumta'lim maktablari psixologi	Oliy pedagogik ma'lumotga ega mutaxassislar.	Pedagogik ma'lumotga ega bakalavr va magistrilar.

6.	Boshlang'ich sinf o'qituvchisi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Matematika o'qituvchisi.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha).</li> <li>4. Matematika.</li> <li>5. Matematika o'qitish metodikasi.</li> <li>6. Amaliy matematika.</li> </ol> <p><i>(Diplom ilovasida pedagogik amaliyot mavjud bo'lsa).</i></p>
7.	O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Rus tili (o'zbek va qardosh tilli sinflarda) o'qituvchisi.</li> <li>4. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Rus tili (o'zbek va qardosh tilli sinflarda).</li> <li>4. Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha).</li> <li>5. Boshlang'ich ta'lim</li> </ol> <p><i>(Diplom ilovasida pedagogik amaliyot mavjud bo'lsa).</i></p>
8.	Qoraqalpog tili va adabiyoti o'qituvchisi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Rus tili (o'zbek va qardosh tilli sinflarda) o'qituvchisi.</li> <li>4. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Rus tili (o'zbek va qardosh tilli sinflarda).</li> <li>4. Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha).</li> <li>5. Boshlang'ich ta'lim</li> </ol> <p><i>(Diplom ilovasida pedagogik amaliyot mavjud bo'lsa).</i></p>
9.	Ona tili va adabiyoti (Rus tili va adabiyoti) o'qituvchisi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> </ol> <p><i>(Izoh: tegishli tilida erkin so'zlasha olish darajasiga ega bo'lishlari shart).</i></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha).</li> </ol> <p><i>(Izoh: tegishli tilida erkin so'zlasha olish darajasiga ega bo'lishlari shart; diplom ilovasida pedagogik amaliyot mavjud bo'lsa).</i></p>
10.	Rus tili va adabiyoti (o'zbek va qardosh tilli sinflarda) o'qituvchisi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> </ol> <p><i>(Izoh: rus tilida erkin so'zlasha olish darajasiga ega bo'lishlari shart; diplom ilovasida pedagogik amaliyot mavjud bo'lsa).</i></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha).</li> </ol> <p><i>(Izoh: rus tilida erkin so'zlasha olish darajasiga ega bo'lishlari shart; diplom ilovasida pedagogik amaliyot mavjud bo'lsa).</i></p>

		3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi	4. Boshlang'ich ta'lim
11.	Chet tili (tillar bo'yicha) o'qituvchisi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy tili va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Rus tili (o'zbek va qardosh tili sinflarda) o'qituvchisi.</li> </ol> <p><i>(Izoh: tegishli tilda erkin so'zlasha olish, darajasiga ega bo'lishlari shart).</i></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>2. Xorijiy tili va adabiyoti (tillar bo'yicha).</li> <li>3. Rus tili (o'zbek va qardosh tili sinflarda).</li> <li>4. Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha).</li> </ol> <p><i>(Izoh: tegishli tilda erkin so'zlasha olish darajasiga ega bo'lishlari shart; diplom ilovasida pedagogik amaliyot mavjud bo'lsa).</i></p>
12.	Matematika o'qituvchisi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Fizika va astronomiya o'qituvchisi.</li> <li>2. Informatika o'qituvchisi.</li> <li>3. Injener-pedagog.</li> <li>4. Umumta'lim fanlari va mehnat o'qituvchisi</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Fizika va astronomiya.</li> <li>2. Fizika o'qitish metodikasi.</li> <li>3. Informatika o'qitish metodikasi.</li> <li>4. Kasb ta'limi (Informatika va axborot texnologiyalari).</li> <li>5. Kasb ta'limi (Iqtisodiyot ta'lim sohasi).</li> <li>6. Kasb ta'limi (Ishlab chiqarish va texnik bilim sohasi).</li> <li>7. Kasb ta'limi (Qishloq xo'jaligi texnikasi ta'lim sohasi).</li> <li>8. Kasb ta'limi (Muhandislik ishi ta'lim sohasi).</li> <li>9. Kasb ta'limi (Transport ta'lim sohasi).</li> </ol>
13.	Fizika o'qituvchisi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Matematika o'qituvchisi.</li> <li>2. Informatika o'qituvchisi.</li> <li>3. Umumtexnika fanlari va mehnat o'qituvchisi.</li> <li>4. Injener-pedagog.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Matematika.</li> <li>2. Matematika o'qitish metodikasi.</li> <li>3. Informatika o'qitish metodikasi.</li> <li>4. Astronomiya.</li> <li>5. Texnologiya (Mehnat ta'limi).</li> <li>6. Kasb ta'limi (Ishlab chiqarish va texnik bilim sohasi).</li> <li>7. Kasb ta'limi (Qishloq xo'jaligi texnikasi ta'lim sohasi).</li> <li>8. Kasb ta'limi (Muhandislik ishi ta'lim sohasi).</li> <li>9. Kasb ta'limi (Transport ta'lim sohasi).</li> </ol>
14.	Informatika o'qituvchisi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Matematika o'qituvchisi.</li> <li>2. Fizika va astronomiya o'qituvchisi.</li> <li>3. Umumtexnika fanlari va mehnat o'qituvchisi.</li> <li>4. Injener-pedagog.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Matematika.</li> <li>2. Matematika o'qitish metodikasi.</li> <li>3. Fizika va astronomiya.</li> <li>4. Fizika o'qitish metodikasi.</li> <li>5. Texnologiya (Mehnat ta'limi).</li> <li>6. Kasb ta'limi (Kompyuter texnologiyalari va informatika ta'lim sohasi).</li> </ol>

			7. Boshlang'ich ta'lim 8. Kasb ta'limi (Telekommunikatsiya).
15.	Iqtisodiy bilim asoslari o'qituvchisi	1. Geografiya o'qituvchisi..	1. Geografiya. 2. Geografiya o'qitish metodikasi.
16.	Biologiya o'qituvchisi	1. Kimyo o'qituvchisi. 2. Ekologiya o'qituvchisi.	1. Kimyo. 2. Kimyo o'qitish metodikasi. 3. Kasb ta'limi (Ekologiya va tabiatdan foydalanish). 4. Kasb ta'limi (Ekologiya va atrof muhit muhofazasi). 5. Kasb ta'limi (Farmatsiya). 6. Kasb ta'limi (Agronomiya). 7. Kasb ta'limi (Davolash ishi). 8. Kasb ta'limi (Zootexniya, Veterinariya).
17.	Kimyo o'qituvchisi	1. Biologiya o'qituvchisi. 2. Ekologiya o'qituvchisi.	1. Biologiya. 2. Biologiya o'qitish metodikasi. 3. Kasb ta'limi (Ekologiya va tabiatdan foydalanish). 4. Kasb ta'limi (Ekologiya va atrof muhit muhofazasi). 5. Kasb ta'limi (Farmatsiya). 6. Kasb ta'limi (Agronomiya). 7. Kasb ta'limi (Davolash ishi). 8. Kasb ta'limi (Kimyoviy texnologiya). 9. Kasb ta'limi (Oziq-ovqat texnologiyasi). 10. Kasb ta'limi (Noorganik moddalar va organik birikmalar kimyoviy texnologiyasi).
18.	Tarix o'qituvchisi	1. Huquqshunoslik o'qituvchisi. 2. Milliy g'oya va ma'naviyat o'qituvchisi. 3. Geografiya o'qituvchisi.	1. Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari. 2. Geografiya. 3. Geografiya o'qitish metodikasi.
19.	Tarbiya o'qituvchisi	1. Huquqshunoslik o'qituvchisi. 2. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari o'qituvchisi. 3. Tarix o'qituvchisi. 4. Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi (tillar bo'yicha). 5. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi. 6. Pedagogika va psixologiya o'qituvchisi	1. Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari/ 2. Tarix. 3. Tarix o'qitish metodikasi. 4. Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha). 5. Ona tili va adabiyot (tillar bo'yicha). 6. Boshlang'ich ta'lim 7. Pedagogika va psixologiya 8. Kasb ta'limi (Ijtimoiy sohalar bo'yicha)

20.	Geografiya o'qituvchisi	1. Iqtisodiy bilim asoslari o'qituvchisi.	1. Iqtisodiy bilim asoslari.
21.	Texnologiya fani o'qituvchisi	1. Fizika va astronomiya o'qituvchisi. 2. Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi. 3. Umumtexnika fanlari o'qituvchisi. 4. Oligofrenopedagogika.	1. Fizika va astronomiya. 2. Fizika o'qitish metodikasi. 3. Tasviriy san'at va chizmachilik. 4. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi. 5. Kasb ta'limi (Ishlab chiqarish va texnik bilim sohasi). 6. Kasb ta'limi (Qishloq xo'jaligi texnikasi ta'lim sohasi). 7. Defektologiya (Oligofrenopedagogika). 8. Kasb ta'limi (Amaliy san'at, Servis). 9. Kasb ta'limi (Muhandislik ishi ta'lim sohasi). 10. Kasb ta'limi (Transport ta'lim sohasi).
22.	Davlat va huquq asoslari o'qituvchisi	1. Tarix o'qituvchisi. 2. Tarix va jamiyatshunoslik o'qituvchisi.	1. Tarix. 2. Tarix o'qitish metodikasi.
23.	Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi	1. Umumtexnika fanlari va mehnat o'qituvchisi.	1. Texnologiya (Mehnat ta'limi). 2. Kasb ta'limi (Ishlab chiqarish va texnik bilim sohasi). 3. Kasb ta'limi (Qishloq xo'jaligi texnikasi ta'lim sohasi). 4. Kasb ta'limi (Amaliy san'at, Servis). 5. Kasb ta'limi (Muhandislik ishi ta'lim sohasi). 6. Kasb ta'limi (Transport ta'lim sohasi). 7. Kasb ta'limi (San'atshunoslik (tasviriy va manzarali amaliy san'at)). 8. Kasb ta'limi (Amaliy san'at (turlari bo'yicha)). 9. Kasb ta'limi (Rangtasvir (turlari bo'yicha)). 10. Kasb ta'limi (Haykaltaroshlik (turlari bo'yicha)). 11. Kasb ta'limi (Dizayn (tasviriy va amaliy san'at)).
24.	Musiqaga o'qituvchisi		1. Kasb ta'limi (Dirijyorlik (turlari bo'yicha)). 2. Kasb ta'limi (Xoreografiya (turlari bo'yicha)). 3. Kasb ta'limi (Xalq ijodiyoti (turlari bo'yicha)). 4. Kasb ta'limi (San'atshunoslik (turlari bo'yicha)). 5. Kasb ta'limi (Rejissyorlik (turlari bo'yicha)). 6. Kasb ta'limi (Aktyorlik san'ati (turlari bo'yicha)).

Izoh: quyidagi yo'nalishlarni bitiruvchilar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida qayta tayyorlashdan o'tmasdan to'g'ridan-to'g'ri dars berish huquqiga ega:

Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari - Davlat va huquq asoslari fanidan;  
Kasb ta'limi (Bastakorlik san'ati (turlari bo'yicha)) – Musiqqa fanidan;  
Kasb ta'limi (Vokal san'ati (turlari bo'yicha)) – Musiqqa fanidan;  
Kasb ta'limi (Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha)) – Musiqqa fanidan;  
Kasb ta'limi (Iqtisodiyot sohalari bo'yicha) - Iqtisodiy bilim asoslari fanidan;  
Kasb ta'limi (Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)) – Kimyo fanidan;  
Kasb ta'limi (Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha)) - Tegishli xorijiy tildan;  
Kasb ta'limi (Yurussprudensiya) - Davlat va huquq asoslari fanidan;  
Kasb ta'limi (Huquqshunos) - Davlat va huquq asoslari fanidan;  
Kasb ta'limi (Informatika va axborot texnologiyalari) – Informatika fanidan.

*Handwritten signature*

Xalq ta'limi tizimida oliy ma'lumoti nopedagog kadrlarni pedagogik qayta tayyorlash yo'nalishlari\*

№	Pedagogik faoliyat yuritish huquqi beriladigan fan	Diplom bo'yicha mutaxassisligi, akademik daraja	
		Oliy ma'lumoti mutaxassislar	Bakalavrlar va magistrlar
1.	Chet tili (tillar bo'yicha) o'qituvchisi	1. Tarjimonlik (tillar bo'yicha)** (Izoh: tegishli tilda erkin so'zlasha olish darajasiga ega bo'lishlari shart)	1. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha)** (Izoh: tegishli tilda erkin so'zlasha olish darajasiga ega bo'lishlari shart)
2.	Matematika o'qituvchisi	1. Matematik-injener. 2. Mexanika. 3. Informatika. 4. Iqtisodiyot ta'lim sohasi. 5. Ishlab chiqarish va texnik ta'lim sohasi. 6. Qishloq xo'jaligi texnikasi ta'lim sohasi.	1. Mexanik. 2. Kompyuter texnologiyalari va informatika ta'lim sohasi. 3. Iqtisodiyot ta'lim sohasi. 4. Ishlab chiqarish va texnik bilim sohasi. 5. Qishloq xo'jaligi texnikasi ta'lim sohasi. 6. Muhandislik ishi ta'lim sohasi. 7. Transport ta'lim sohasi.
3.	Informatika o'qituvchisi	1. Informatika va axborot texnologiyalari**. 2. Boshqarishning avtomatlashirilgan sistemalari. 3. Matematik-injener. 4. Fizika va elektronika.	1. Kompyuter texnologiyalari va informatika ta'lim sohasi. 2. Elektronika va mikroelektronika. 3. Telekommunikatsiya. 4. Axborot xavfsizligi. 5. Aloqa boshqarish. 6. Информатика ва ахборот технологиялари**.
4.	Fizika o'qituvchisi	1. Fizik-injener. 2. Mexanika. 3. Geofizika. 4. Elektronika va mikroelektronika.	1. Mexanika. 2. Geofizika. 3. Elektronika va mikroelektronika. 4. Muhandislik ishi ta'lim sohasi. 5. Ishlab chiqarish va texnik bilim sohasi. 6. Qishloq xo'jaligi texnikasi ta'lim sohasi. 7. Muhandislik ishi ta'lim sohasi. 8. Transport ta'lim sohasi.

			9. Radiotexnika, elektronika va mikroelektronika 10. Nanotexnologiyalar 11. Telekommunikatsiyalar
5.	Iqtisodiy bilim asoslari o'qituvchisi	1. Iqtisodiyot sohasi**.	1. Iqtisodiyot ta'lim sohasi**.
6.	Biologiya o'qituvchisi	1. Ekologiya. 2. Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha) 3. Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi.	1. Ekologiya va tabiatdan foydalanish. 2. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. 3. Bioinformatika. 4. Genetika. 5. Farmatsiya 6. Agronomiya 7. Davolash ishi 8. Zootexniya 9. Veterinariy.
7.	Kimyo o'qituvchisi	1. Ekologiya. 2. Ximik-texnolog**. 3. Ximik-injener**.	1. Ekologiya va tabiatdan foydalanish. 2. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. 3. Farmatsiya 4. Davolash ishi 5. Agronomiya. 6. Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)**. 7. Metallurgiya. 8. Agrokimyo va tuproqshunoslik.
8.	Geografiya o'qituvchisi	1. Geologiya, geodeziya, kartografiya. 2. Gidrometeorologiya.	1. Gidrometeorologiya. 2. Gidrologiya. 3. Geologiya. 4. Geodeziya, kartografiya va kadastr..
9.	Musiqqa o'qituvchisi	1. Xalq cholg'u ansambli**. 2. Ashula va raqs jamoasi rahbarligi**. 3. Folklor-etnografik jamoa rahbarligi**.	1. Bastakorlik san'ati**. 2. Vokal san'ati (turlari bo'yicha)**. 3. Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha)**. 4. Xoreografiya (turlari bo'yicha). 5. Xalq ijodiyoti (turlari bo'yicha). 6. Ijtimoiy-madaniy faoliyat.

*Handwritten signature*



10.	Tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchisi	1. Amaliy san'at. 2. Bezakchi-rassom. 3. Injenerlik sohasidagi yo'nalishlar.	1. San'atshunoslik (tasviriy va manzarali amaliy san'at). 2. Amaliy san'at (turlari bo'yicha). 3. Rangtasvir (turlari bo'yicha). 4. Haykaltaroshlik (turlari bo'yicha). 5. Dizayn (tasviriy va manzarali amaliy san'at). 6. Ishlab chiqarish, qurilish va texnik bilim sohasi. 7. Muhandislik ishi ta'lim sohasi. 8. Transport ta'lim sohasi.
11.	Texnologiya o'qituvchisi	1. Injenerlik sohasidagi yo'nalishlar.	1. Ishlab-chiqarish texnik bilim sohasi. 2. Xizmatlar ta'lim sohasi. 3. Qishloq xo'jaligi texnikasi ta'lim sohasi. 4. Muhandislik ishi ta'lim sohasi. 5. Transport ta'lim sohasi.
12.	Davlat va huquq asoslari o'qituvchisi	1. Huquqshunoslik**.	1. Yurisprudensiya (sohalar bo'yicha)**.
13.	Tarix o'qituvchisi	1. Falsafa. 2. Siyosatshunoslik. 3. Huquqshunoslik. 4. Dinshunoslik. 5. Sotsiologiya. 6. Arxivshunoslik. 7. Arxeologiya.	1. Falsafa. 2. Siyosatshunoslik. 3. Huquqshunoslik. 4. Dinshunoslik. 5. Sotsiologiya. 6. Ijtimoiy ish. 7. Arxivshunoslik. 8. Arxeologiya.
14.	O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi	1. Jurnalist. 2. Tarjimonlik (tillar bo'yicha).	1. Jurnalistika. 2. Nutq madaniyati va notiqlik. 3. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha).
15.	Tarbiya o'qituvchisi	1. Falsafa. 2. Siyosatshunoslik. 3. Huquqshunoslik. 4. Dinshunoslik. 5. Sotsiologiya.	1. Falsafa. 2. Siyosatshunoslik. 3. Huquqshunoslik. 4. Dinshunoslik. 5. Sotsiologiya. 6. Ijtimoiy ish.

Izoh: \* - pedagogik faoliyat yuritish uchun avval pedagogik va keyin kasbiy qayta tayyorlash kurslaridan o'tishlari shart;

\*\* - mazkur toifa mutaxassislariga faqatgina pedagogik qayta tayyorlash kurslaridan o'tib pedagogik faoliyat yuritish huquqi beriladi.